

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**YOSHLAR MUAMMOLARINI O'RGANISH VA ISTIQBOLLI
KADRLARNI TAYYORLASH INSTITUTI**

INAGAMOVA LOLA USMANBEKOVNA

**YOSH RAHBARLARDA STRESSGA BARDOSHLILIKNI
SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent -2024

**Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Dostor of Philosophy (PhD)
on Psychological Ssienses**

Inagamova Lola Usmanbekovna

Yosh rahbarlarda stressga bardoshlilikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 3

Инагамова Лола Усманбековна

Социально-психологические особенности формирования стрессоустойчивости у молодых руководителей 27

Inagamova Lola Usmanbekovna

Socio-psychological features of the formation of stress resistance in young leaders.....51

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 57

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**YOSHLAR MUAMMOLARINI O'RGANISH VA ISTIQBOLLI
KADRLARNI TAYYORLASH INSTITUTI**

INAGAMOVA LOLA USMANBEKOVNA

**YOSH RAHBARLARDA STRESSGA BARDOSHLILIKNI
SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent -2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/P373 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.tdpu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Norkulova Nargiza Tashpulatovna
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponenlar:

Qodirov Umarali Do‘stqobilovich
psixologiya fanlari doktori, professor

Nazarov Azamat Sattorovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «___»_____ kuni soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «___»_____ kuni tarqatildi.
(2024-yil «___»_____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

N.B.Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Z.T.Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ro'y berayotgan globallashuv, davlat boshqaruvidagi islohotlar, axborot hajmining ortishi, axborot oqimining tezlashuvi, ijtimoiy qadriyatlarning transformatsiyalashuvi kishilarning kasbiy faoliyatiga, kundalik turmush tarziga hamda ruhiy holatiga to'g'ridan-to'g'ri salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, «dunyo bo'yicha 300 milliondan ortiq kishining salomatligi va mehnatga layoqatliligini yo'qolishining asosiy sababi stress sanaladi»¹. Buyuk Britaniyadagi o'tkazilgan so'rovlardan ma'lum bo'lishicha, «aholining 79 foizi ishda stressdan azoblanadi va har 14-katta yoshdagi inson har kuni stressni boshidan kechiradi»². Bu borada tashkilotlardagi psixologik muhitni yaxshilash, fuqarolarda kuzatiladigan kuchli stress va emotsional toliqish holatlarini bartaraf etish bo'yicha nafaqat fuqarolar, balki mansabdor shaxslar o'rtasida ham tizimli ishlarni amalga oshirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy markazlarida stress sababli mehnat unumdorligi va ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati pasayishini bartaraf etish, kadrlar qo'nimsizligi ko'rsatkichi oshishini oldini olish, ijro intizomi buzilishi va xizmat vaqtida sog'liqqa zarar yetish holatlarini kamaytirish masalalari bo'yicha keng ko'lamlil ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada yosh-rahbarlarning stressga bardoshlilikini oshirish uchun ulardagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni, kasbiy stress shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, stressga chidamlilikning rivojlanish mexanizmlari modelini takomillashtirishga mo'ljallangan maxsus psixodiagnostik, psixokorreksion metodikalar majmuini ishlab chiqish, shaxs psixosotsial barqarorligini ta'minlovchi psixotexnikalarni taklif etish, boshqaruv faoliyatida «subyekt-subyekt» munosabatlari samaradorligini takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor ko'rsatish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu esa yosh rahbarlarda stressga bardoshlilik namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash orqali emotsional soha psixokorreksiyasiga oid mexanizmlarni takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda boshqaruv sohasida qator tub islohotlar amalga oshirilib, boshqaruvni samarali tashkil etish, rahbar xodimlarning kasbiy kompetentligi, ular faoliyatini takomillashtirishning zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratdi: «Boshqaruvning huquqiy asoslari va zamonaviy usullari, tashabbuskorlik va yetakchilik xislatlarini shakllantirish, shuningdek, tizimli tahlil qilish va strategik rejalashtirish, noodatiy sharoitlarda qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish»³ ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu borada yosh rahbar kadrlarni mas'uliyatli lavozimlarga tayinlash, ularda xizmat vakolatlaridan

¹ Стресс и его последствия на организм. // <https://insa.com.ua/ru/blog-ru/stress-y-ego-posledstvyaya-na-organyzm>. [Дата обращения: 13.10.2023].

² Pindar Joe. Stress Statistics UK: 2023. <https://championhealth.co.uk/insights/stress-statistics/> [Date of access: from October 13, 2023.]

³ 2017-yil 8-avgustdagi PF-5139-son «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada rivojlantirish shora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmon

to'laqonli foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish, muhim boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, davlat fuqarolik xizmatchisi mas'uliyatini his qilishga va uning mezonlarini «kognitiv» va «konativ» jihatdan professional anglashga ko'mak berish masalalarini ilmiy o'rganishga yetarli asos yaratilganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 10-noyabrdagi O'RQ-788-son «Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida», 2016-yil 14-sentyabrdagi O'RQ-406-son «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida», 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2017-yil 8-avgustdagi PF-5139-son «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada rivojlantirish shora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari, 2019-yil 3-oktabrdagi PQ-4472-son «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida», 2019-yil 27-iyundagi PQ-4365-son «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2018-yil 30 maydagi PQ-3755-son «Istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari hamda ushbu sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston psixolog olimlaridan M.G. Davletshin, N.Z. Ismoilova, M.X. Karamyan, N.T. Kariyeva, V.M. Karimova, D.U. Mamadiyarova, A.S. Nazarov, R.S. Samarov, B.N. Sirliyev, B.M. Umarov, F.T. Shermatov, A.M. Shonazarov, G'.B. Shoumarov, D.S. Qarshiyeva, O.E. Hayitov va boshqalar tomonidan «stress» va uni boshqarish, «kasbiy stress rivojlanishi», «kasbiy zo'riqishlar», «kasbiy stressni vujudga kelishi»ga ta'sir etuvchi omillar va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ilmiy tadqiq etilgan. Ammo yosh rahbarlarda stressga bardoshlilikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari mamlakatimiz psixologiya fani doirasida maxsus dissertatsion izlanish sifatida tadqiq qilinmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan V.A. Bodrov, N.E. Vodopyanova, L.A. Kitayev-Smik, T.L. Kryukova, A.B. Leonova, S.K. Nartova-Bochaver, N.V. Tarabrina va boshqalar tomonidan «jarohatlar va shikastlanishlardan keyingi stress» muammolari ilmiy tadqiq etilgan.

Xorij tadqiqotchilaridan C.L. Cooper, N.S. Endler, S.Folkman, R.Lazarus, S.F. Maier, M.E.P. Seligman, C.Maslach, H.Selye tashkiliy stress, kasbiy stress muammosini va boshqalar ilmiy tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsion tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining Birlashgan Millatlar tashkiloti taraqqiyot dasturiga muvofiq «Yoshlar Farg'ona vodiysida ijtimoiy uyg'unlik uchun» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2021 y.).

Tadqiqotning maqsadi yosh rahbarlarda stressga bardoshlilikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yosh rahbarlarda stress va stress holatini vujudga keltiruvchi «kongnitiv dissonans»larni kuchaytiruvchi psixofiziologik, psixoemotsional, ijtimoiy omillarning ustuvor xarakterga ega ekanligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash;

yosh rahbarlar faoliyatida stress holatini tadqiq etishning «psixosomatik va psixovegetativ buzilishlar»ning ustuvor namoyon bo'lishini hissiy so'nish bilan bog'liqligini tadqiq etish;

yosh rahbarlarda stressga bardoshlilikni oshirishda xulq-atvor shakllarini assotsial va tajavuzkor harakatlarini kompensatsiyalashda namoyon bo'ladigan stressli vaziyatlarni bartaraf etish strategiyalarini rivojlanishiga to'g'ri proporsional ekanligini dalillash;

yosh rahbarlarda stressni samarali boshqarishi ko'nikmasini shakllantirish uchun autotexnik va relaksatsiya usullari orqali «o'z-o'ziga motivatsiya», «o'ziga ijobiy hissiy munosabatni» rivojlantirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini sifatida yosh rahbarlarda stressga bardoshlilikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash jarayoni bo'lib, tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligi tizim tashkilotlarida rahbarlik faoliyatini olib borayotgan 30 yoshgacha bo'lgan rahbar kadrlardan 263 nafar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligida rahbarlikga nomzod zaxira kadrlardan 97 nafar, jami 360 nafar respondent ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini yosh rahbarlarda stressga bardoshlilikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kuzatish, maxsus tuzilgan mualliflik ijtimoiy-psixologik so'rovnomasi (IPS), Lemur-Tese-Fillionning «PSM-25 – Psixologik stress shkalasi», Frayburgning «Shaxs xususiyatlarini o'rganish» so'rovnomasi (FPI), S.Xobfollning «Stressga qarshi kurash strategiyalari» (SACS) psixologik testi, V.V.Boykoning «Emotsional so'nish darajasini tashxis qilish» metodikasi; Maklinning «Tashkiliy masalalar bilan bog'liq stress shkalasi» ijtimoiy-psixologik so'rovnomasidan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchligi matematik-statistik usullardan K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsienti,

Styudentning t-mezone orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yosh rahbarlarda stress holatini vujudga kelishidagi differensial farqlarga ko'ra boshqaruv axborotlarini qabul qilish, qayta ishlash, ratsional qarorlar qabul qilishdagi professional-psixologik yuklamaning shaxs hissiy sohasiga disfunktsional ta'siri «kongnitiv dissonans»larni kuchaytirganligi tufayli psixofiziologik, psixoemotsional, ijtimoiy omillarning ustuvor xarakterga ega ekanligi dalillangan;

shaxsda stressga bardoshlilikning shakllanishi yosh rahbarlardagi «psixotravmatik vaziyatlar kechishi», «o'zidan qoniqmaslik, «burchakka taqalgan»lik, «xavotirlanish va depressiya», «kasbiy vazifalarni qisqartirish», «emotsional tanqislik», «depersonalizatsiya», «psixosomatik va psixovegetativ buzilishlar»ning, zaxiradagi rahbarlarda «psixotravmatik vaziyatlar kechishi», «xavotirlanish va depressiya», «depersonalizatsiya», «psixosomatik va psixovegetativ buzilishlar»ning ustuvor namoyon bo'lishi tufayli hissiy so'nish bilan bog'liq psixoemotsional holatning namoyon bo'lishiga teskari proporsional ekanligi dalillangan;

yosh rahbarlarda stressga bardoshlilikning shakllanishi shaxsning dadil xatti-harakatlarni amalga oshirish, insonlar bilan muloqot qilishga intilish, o'zgalarning qo'llab-quvvatlashini kutish, shoshilmasdan ish tutish, keskin xatti-harakatlarni sodir etish, muammolardan uzoqlashishni istash, rejali choralar ko'rish kabi xulq-atvor shakllarini assotsial va tajavuzkor harakatlarni kompensatsiyalashda namoyon bo'lishi tufayli stressli vaziyatlarni bartaraf etish strategiyalarini rivojlanishiga to'g'ri proporsional ekanligi dalillangan;

yosh rahbarlarda stressni samarali boshqarishi ko'nikmasini shakllantirish uchun stressga bardoshlilik, moslashuvchanlik, «time menejment», «self menejment», jamoaga interaktiv ta'sir etish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish bilan bog'liq professional autoidentifikatsiyani rivojlantirish muhimligiga ko'ra autotexnik va relaksatsiya usullari orqali «o'z-o'ziga motivatsiya», «o'ziga ijobiy hissiy munosabatni» tarkib toptirish zarurati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

«Stressni boshqarish» (№ DGU 002465, 25.09.2020) nomli mualliflik trening ssenariy modullari va dasturlari ishlab chiqilgan;

«Yosh rahbarlarda stressga bardoshlilikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari» (№ DGU 005140, 13.10.2022) nomli mualliflik trening ssenariy dasturlari ishlab chiqilgan;

«Yosh rahbarlarning stressga bardoshlilikini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari» nomli videokurs materiallari mok.dba.uz va ilm.argos.uz masofaviy platformalariga (SF 65558837, 09.06.2023) joylashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan psixodiagnostik metodikalarning psixometrik talablarga javob berishi, olingan empirik natijalarni qayta ishlashda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilganligi (korrelyatsion tahlil, Styudentning t-mezone) va miqdoriy ko'rsatkichlarni psixologik talqin etishda ishonchlilik hamda muqarrarlikning statistik mezonlariga tayanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qo‘lga kiritilgan natijalardan Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi hamda Davlat boshqaruvi akademiyasida tashkil etiladigan malaka oshirish kurslarining «Boshqaruv psixologiyasi», «Stress-menejment», «Taym-menejment», «Self-menejment» modullarini ilmiy manbaalar bilan boyitishda, ma’ruza, amaliy, trening mashg‘ulotlar o‘tishda va amaliyotchi psixologlar malakasini oshirishda xizmat qilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taklif etilayotgan tavsiyalar amaliy psixologlar, Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi tizim tashkilotlarida ishlaydigan psixologlar, zaxira kadrlarni tanlash, psixologik tashxis, konsultativ markaz mutaxassislari faoliyatida foydalanishlari mumkin, yaratilgan trening ssenariy asarlari va dasturlaridan davlat fuqarolik xizmatida rahbarlarni lavozimga tayinlashda, Davlat boshqaruvi akademiyasi va universitetlarda, davlat boshqaruvi, psixologiya mutaxassisligi va «Kelajak liderlari» maxsus o‘quv dasturlari bo‘yicha malaka oshirayotgan (ta’lim olayotgan) tinglovchilar (talabalar) uchun o‘quv adabiyotlarini yaratishda, ma’ruzalar matni tayyorlashda, «Stressni boshqarish» fanidan trening (amaliy) mashg‘ulotlar o‘tishda, yosh rahbarlar bilan psixologik xizmat ishlarini tashkil etish tizimini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yosh rahbarlarda stressga bardoshlilikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

yosh rahbarlarda stress holatini vujudga kelishidagi differensial farqlarga ko‘ra boshqaruv axborotlarini qabul qilish, qayta ishlash, ratsional qarorlar qabul qilishdagi professional-psixologik yuklamaning shaxs hissiy sohasiga disfunktsional ta’siri «kongnitiv dissonans»larni kuchaytirganligi tufayli psixofiziologik, psixoemotsional, ijtimoiy omillarning ustuvor xarakterga ega ekanligini dalillashga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2023-yil 19-sentyabrdagi PM-72-son buyrug‘i bilan «Ijtimoiy psixologiya moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2023-yil 26-sentyabrdagi PM-72-a-son ma’lumotnomasi). Natijada yosh rahbarlarda stress holatini vujudga kelishidagi differensial farqlarga ko‘ra boshqaruv axborotlarini qabul qilish samaradorligi oshgan;

shaxsda stressga bardoshlilikning shakllanishi yosh rahbarlardagi «psixotravmatik vaziyatlar kechishi», «o‘zidan qoniqmaslik, «burchakka taqalgan»lik, «xavotirlanish va depressiya», «kasbiy vazifalarni qisqartirish», «emotsional tanqislik», «depersonalizatsiya», «psixosomatik va psixovegetativ buzilishlar»ning, zaxiradagi rahbarlarda «psixotravmatik vaziyatlar kechishi», «xavotirlanish va depressiya», «depersonalizatsiya», «psixosomatik va psixovegetativ buzilishlar»ning ustuvor namoyon bo‘lishi tufayli hissiy so‘nish bilan bog‘liq psixoemotsional holatning namoyon bo‘lishiga teskari proporsional ekanligini dalillashga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2023-yil 19-sentyabrdagi PM-72-

son buyrug‘i bilan «Boshqaruv psixologiyasi» moduiga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2023-yil 26-sentyabrdagi PM-72-a-son ma‘lumotnomasi). Natijada yosh rahbarlarda stressga bardoshlilikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish natijadorligi ta‘minlangan;

yosh rahbarlarda stressga bardoshlilikning shakllanishi shaxsning dadil xatti-harakatlarni amalga oshirish, insonlar bilan muloqot qilishga intilish, o‘zgalarning qo‘llab-quvvatlashini kutish, shoshilmasdan ish tutish, keskin xatti-harakatlarni sodir etish, muammolardan uzoqlashishni istash, rejali choralar ko‘rish kabi xulq-atvor shakllarini assotsial va tajavuzkor harakatlarni kompensatsiyalashda namoyon bo‘lishi tufayli stressli vaziyatlarni bartaraf etish strategiyalarini rivojlanishiga to‘g‘ri proporsional ekanligini dalillashga oid ma‘lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazining 2023-yil 19-sentyabrdagi PM-72-son buyrug‘i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2023-yil 26-sentyabrdagi PM-72-a-son ma‘lumotnomasi). Natijada yosh rahbarlarda stressga bardoshlilikning shakllanishini tahliliy o‘rganishga sharoit yaratilgan;

yosh rahbarlarda stressni samarali boshqarishi ko‘nikmasini shakllantirish uchun stressga bardoshlilik, moslashuvchanlik, «time menejment», «self menejment», jamoaga interaktiv ta‘sir etish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish bilan bog‘liq professional autoidentifikatsiyani rivojlantirish muhimligiga ko‘ra autotexnik va relaksatsiya usullari orqali «o‘z-o‘ziga motivatsiya», «o‘ziga ijobiy hissiy munosabatni» tarkib toptirish zaruratini asoslashga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2023-yil 19-sentyabrdagi PM-72-son buyrug‘i bilan «Umumiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2023-yil 26-sentyabrdagi PM-72-a-son ma‘lumotnomasi). Natijada yosh rahbarlarda stressni samarali boshqarish ko‘nikmasini shakllantirish imkoniyatlari oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqotning natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, jumladan 4 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarda sinovdan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan, 3 ta respublika 4 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning matni 126 sahifani tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti yoritilgan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprotatsiyasi va e'lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi borasidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **«Yosh rahbarlarda stressga bardoshlilikni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari»** deb nomlangan birinchi bobida stress va stress holatini vujudga keltiruvchi sabablarning ilmiy-nazariy tahlili, yosh rahbarlarda stressga bardoshlilikni shakllantirishning obyektiv-subyektiv omillari: xorijiy tajriba, yosh rahbar kadrlar faoliyatida stressga bardoshlilikni shakllantirishning hulq-atvor strategiyalari tahlil etilgan va yoritilgan. Ushbu bobda «stress», «eustress», «distress», «kasbiy stress» tushunchalarining nazariy asoslari o'rganilgan va tahlil qilingan hamda xorijiy mamlakatlarda ushbu tushunchalar talqinining o'ziga xosligi ochib berilgan. Bu borada olimlarning (G.Sele, A.Bodrov, A.Bleer, N.E. Vodopyanova, L.G. Dikaya, A.N. Zankovskiy, L.A. Kitayev-Smik, A.B. Leonova, N.V. Samoukina asarlari, mahalliy tadqiqotchilar N.Z. Ismoilova, D.S. Qarshiyevalar) fikr-mulohazalari o'rganilib, ular bilan ilmiy munozara qilgan holda «stress», «kasbiy stress» tushunchalariga mualliflik ta'rifi berilgan. Stress namoyon bo'lishining psixologik mexanizmlarini yoritib beruvchi modellar tahlil etilgan. Ushbu modellarga Gans Selyening «umumiy moslashuv sindromi», kasbiy stressning Michigan modeli, kasbiy stressning Mak Gras yondashuviga asoslangan modeli, M.Smit modeli, Seligman modeli, Xarvey modeli, Maslax modeli, Lazarus hamda Jonson modellari mazmunan o'rganib chiqilgan.

Psixologiyada insonda qo'zg'alish yoki zo'riqishni chaqiruvchi istalgan tashqi stimullar yoki voqealar stressorlar deb atalishi va stressogen vaziyatlarda shaxsning faolligini, ishchanlik kayfiyatini tushirmaslik yoki buzmaslik uchun zarur bo'lgan stressga bardoshlilik ko'nikmalari bo'lishi lozimligi ta'kidlangan.

Tadqiqot ishida muallif tomonidan stressga bardoshlilikni shakllantirish bo'yicha yetakchi olimlarning, jumladan, G.Sele, A.Bandura, L.Myorfi, N.Xaan, A.G. Maklakov, D.Fontana, K.Kuper, J.Marshal, N.Kostenko, A.V. Morozov, N.X. Amirov fikrlari o'rganilgan. Unda stressni yengib o'tishda rahbar fazilatlarini, stressorlarning tasnifi (kasb doirasidagi stressorlar, kasbiy faoliyatdan tashqaridagi stressorlar), stress belgilari, stressga bardoshlilikni shakllantirishning ob'ektiv va sub'ektiv omillari, stress oqibatlari, tashkiliy stress, stressga bardoshlilikning ahamiyati tahlil etilgan.

Psixologiya fanida shaxsning stressga bardoshlilik o'z emotsiyalarini boshqarish, o'zini qo'lga olish va ma'lum bir taktga ega bo'lish asnosida qiyinchiliklarni o'z salomatligi uchun salbiy oqibatlarsiz yengib o'ta olish

ko'nikmasi bo'yicha fikrlar bayon etilgan. Stressga bardoshlilik, hissiy barqarorlik va tashkilot rahbarining samarali faoliyati uchun shaxsiy xislatlar juda muhimdir, chunki salbiy holatlar rahbarda stressga bardoshlilikning pastligi tufayli yuzaga keladi, bu esa quyi bug'in xodimlariga va tashkilotning butun faoliyatiga ta'sir qiladi hamda muqarrar ravishda samarasiz faoliyat olib borishga sharoit yaratishi ta'kidlangan.

«Stressga bardoshlilik»ni o'rganishda xorijiy mamlakatlar amaliyoti va boshqaruvida rahbarlarni stressga bardoshlilik bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish va stressdan chiqarishga oid qo'llanilayotgan uslublarni O'zbekistonga ham joriy etish o'ta muhim sanaladi. Shuning uchun dissertatsiyada stressga bardoshlilikni shakllantirish bo'yicha Rossiya, Yaponiya, BAA, Koreya, Germaniya tajribalari tahlil qilingan.

O'zbekistonda vazirlik va idoralarda mas'uliyatli lavozimlarga ko'plab yosh rahbarlar tayinlanish amaliyoti kengayib borayotganligi, ularning aksariyati yaxshi bilim olgan, amaliy ish tajribasiga ega bo'lsa-da, lekin tadqiqotlar natijasiga ko'ra boshqaruv jarayonida kasbiy ko'nikmalar sifatida moslashuvchanlik, stressga bardoshlilik, emotsional toliqishga qarshi kurasha oladigan tajriba va malakaga ega emasligi ta'kidlangan. Buning uchun avvalo kadrlar zaxirasi bilan ishlash tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilishi lozimligi aytilgan.

Tadqiqotda kadrlar zaxirasini tayyorlash bo'yicha ishlash texnologiyasini amalda qo'llashni rejalashtirganda e'tiborni kadrlar zaxirasini tayyorlash samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator bosqichlari o'rganilgan va tahlil etilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Yosh rahbarlar faoliyatida stress holati psixodiagnostikasining ilmiy-metodologik asoslari va empirik natijalarini ijtimoiy-psixologik tahlili**» deb nomlanib, unda yosh rahbarlarda stressga bardoshlilikni shakllantirishning ilmiy-metodologik asoslari va vositalari, yosh rahbarlar faoliyatidagi «stress holatini baholash» usullari guruhining nazariy metodologik asoslari tahliliga oid masalalar ko'rib chiqilgan.

Bu bobda ijtimoiy-psixologik trening metodologik modelining yosh rahbarning stressga bardoshlilikning oshirish vositasi sifatida tahlil qilingan hamda yosh rahbarlarda stressning salbiy oqibatlari profilaktikasi bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Rahbarning kasbiy faoliyat davomidagi emotsional toliqish sindromining ijtimoiy-psixologik omillari, stressga bardoshlilik va ijtimoiy moslashuvchanlik mexanizmlari trening mashg'ulotlari doirasidagina ochib berilishi tadqiqot ishida aslantirilib berilgan bo'lib, «Stressni boshqarish» treningi dasturi konsepsiyasi va ssenariysi taklif etilgan.

Mazkur «Stressni boshqarish» trening dasturi doirasida stressga bardoshlilik, moslashuvchanlik, o'z o'zini boshqarish, vaqtni boshqarish, jamoani shakllantirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish bo'yicha kompleks kompetensiyalarni rivojlantirishi asoslantirilgan. Tadqiqot davomida yosh rahbarlarda stressga bardoshlilikning namoyon bo'lishi aynan ularning stressli vaziyatlarni bartaraf etish strategiyalariga bog'liqligini tekshirishga harakat qilingan. Boshqaruv tizimida

stressning sabablari sifatida ish yuklamasining me'yoriy ko'rsatkichlarini mavjud emasligi va ish taqsimoti yaxshi emasligi aniqlangan. Stress va uning oqibati bilan bog'liq psixologik o'zgarishlarni kuchayotganligi va emotsional toliqish darajasigacha olib kelayotganligi ta'kidlangan.

Tadqiqotda muallif tomonidan to'rtta savollar bloki bo'yicha stressga bardoshlilikni o'rganish natijasida O'zbekiston sharoitida yosh rahbarlarni stressga bardoshlilikni shakllantirishga bo'lgan psixologik ehtiyojlarining mavjudligini ko'rsatganligi, O'zbekistonda aksariyat boshqaruv tizimidagi tashkilotlarda stressga bardoshlilik bo'yicha yagona metodologiyaning mavjud emasligi hamda stressga bardoshlilikni shakllantirish bo'yicha turli tashkilotlarda xar xil korporativ usullar qo'llanishini, yosh rahbarlarda stressogen omillarni yengib o'tish bo'yicha psixologik xizmatlarning yo'qligi aniqlangan. Bunday holat hatto Davlat organlaridagi zaxira kadrlarni tayyorlash tizimlarida ham jarayonlar stixiyali kechayotganini kuzatish mumkinligi ta'kidlangan.

1-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar IPS ning yosh rahbarlarda stressni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash maqsadida «Odatda, Sizda vujudga keladigan stress holatlari nimalarga bog'liq?» deya berilgan savolning javoblaridan olingan. Natijalardan ma'lumki, respondentlarning 36,2 foizi «uyquning kamligi», 12,0 foizi «boshning og'rishi», 24,8 foizi «kayfiyatning yo'qligi» insonda stressni paydo qiluvchi bosh omillardan biri deb hisoblashar ekan. Ularning fikricha, doimiy ravishda uyqu rejimining buzilishi, boshdagi turli darajali og'riqlar, salbiy emotsional holatlar shaxsda zo'riqishni hosil qiladi.

Shuningdek, yosh rahbarlarning 11,1 foizi «hamkasblarning salbiy munosabati», 25,1 foizi «haddan tashqari kuchli charchoq», 10,3 foizi «oilada tinchlikning yo'qligi»ni stressogen omil sifatida baholashgan. Bundan ko'rinadiki, ish faoliyatida hamkasb insonlar o'rtasidagi nizoli holatlar va o'zaro tushunmovchiliklar, ish hajmining ko'pligi sababli yuqori darajadagi toliqish holatlari, oilaviy mojarolar, oila a'zolarining bir-birini qo'llab-quvvatlamasliklari, ularda stress holatining namoyon bo'lishiga o'z ta'sirini o'tkazar ekan.

1-jadval.

Yosh rahbarlar xulq-atvorida stressni yuzaga keltiruvchi omillar ta'sirining namoyon bo'lishi (n=263), % da

№	Stressogen omillar	Tanlovlar qiymati	№	Stressogen omillar	Tanlovlar qiymati
1.	Uyquning kamligi	36,2	9.	Oylik maoshining kamligi	8,4
2.	Boshning og'rishi	12,0	10.	Motivatsiyaning yo'qligi	8,9
3.	Kayfiyatning yo'qligi	24,8	11.	Keraksiz ishning ko'pligi	19,5
4.	Hamkasblarning salbiy munosabati	11,1	12.	Vaqtning kamligi	9,5
5.	Haddan tashqari kuchli charchoq	25,1	13.	Xavotirlanish holatining kuchlilik	7,8
6.	Oilada tinchlikning yo'qligi	10,3	14.	Tahliliy ma'lumotlarning ko'pligi	4,2

7.	Majlislarning ko'pligi	15,6	15.	Vaqtida tanovul qilmaslik	4,2
8.	Rahbariyatning qo'polligi, jahldorligi	10,6	16.	O'zimdagi kuchli hayajon	4,5

Respondentlarning 15,6 foizi «majlislarning ko'pligi», 10,6 foizi «rahbariyatning qo'polligi va (yoki) jahldorligi», 8,4 foizi «oylik maoshning kamligi» shaxsda stress holati rivojlanishida yetakchi o'rin tutishini ta'kidlashgan. Demak, yosh rahbarlarning boshqaruv faoliyatida uchraydigan ko'plab keraksiz yig'ilishlar, yuqorida turuvchi organlardagi boshqaruvchilarda muomala madaniyatining yetishmasligi, avtoritar tizimdagi buyruqbozlik holatlari, xodimlarga nisbatan agressiv munosabat, ish haqining kamligi, mehnatga munosib moddiy rag'batlantirishlarning kuzatilmashligi, ularda emotsional zo'riqishlar kuchayishiga olib kelishi tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldi.

Shu bilan bir qatorda, yosh rahbarlarning 8,9 foizi «motivatsiyaning yo'qligi», 19,5 foizi «keraksiz ishning ko'pligi», 9,5 foizi «vaqtning kamligi»ni stressni yuzaga keltiruvchi asosiy omil sifatida qayd etishgan. Mazkur ko'rsatkichlardan, mehnat faoliyatida ishtiyoq va ruhlantirishning yetishmasligi, o'z kasbiy burch hamda vazifalariga kirmaydigan ortiqcha topshiriqlarning me'yordan ko'pligi, zaruriy ishlarni amalga oshirish uchun vaqtning kamligi shaxsda stressning paydo bo'lishiga olib keladi, degan xulosani keltirib chiqaradi.

Respondentlarning 7,8 foizi «xavotirlanish holatining kuchliligi», 4,2 foizi «tahliliy ma'lumotlarning ko'pligi», 4,2 foizi «vaqtida tanovul qilmaslik», 4,5 foizi «o'zimdagi kuchli hayajon» insonda stress holatining namoyon bo'lishiga turki bo'lishini qayd etishgan. Mazkur natijalar, o'z navbatida, «shaxsda turli noxush vaziyatlarda paydo bo'ladigan xavotirlanish hissining yuqoriligi, ish jarayonida tizimlashtirilishi va tahlil qilinishi zarur bo'lgan turfa axborotlar ko'lamining kengligi, vazifalarni o'z vaqtida bajarish uchun tushlik qilishga ulgurmaslik holatlari, berilayotgan topshiriqlarni yuqori sifatda bajarishda o'ziga nisbatan ishonchsizlik va ortiqcha hayajonlanishlar yosh rahbarlarda emotsional zo'riqishlarga sabab bo'ladi», – degan xulosani keltirib chiqaradi.

Tadqiqot natijalardan ma'lum bo'ladiki, yosh rahbarlarda stress holatining yuzaga kelishiga turli omillar o'z ta'sirini o'tkazadi, ayniqsa, «uyquning kamligi», «kayfiyatning yo'qligi», «haddan tashqari kuchli charchoq», «keraksiz ishning ko'pligi» boshqa ta'sirlarga qaraganda yuklamasi ko'proq sanalar ekan.

Tadqiqot davomida yosh rahbarlarda kuzatiladigan doimiy stressli vaziyatlar qanday oqibatlarga olib kelishi bo'yicha munosabatlari o'rganildi. Shu nuqtai nazardan ularga «Sizningcha, ish faoliyatingizda doimiy stressni boshdan kechirishingiz qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?» degan savol bilan murojaat qilindi. Mazkur savolga respondentlar tomonidan berilgan javoblar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi hamda quyidagi jadvalda aks ettirildi (2-jadvalga qarang).

2-jadval.


Yosh rahbarlarning surunkali stress oqibatlarini his qilishlari bildirilgan munosabatlari ko'rsatkichlari (n=263) , % da

№	Stressogen oqibatlari	Tanlovlar qiymati	№	Stressogen oqibatlari	Tanlovlar qiymati
1.	Kasal bo'lib qolish	33,6	6.	Jamoadagi nizolar	8,9
2.	Asabiy bo'lib qolish	48,3	7.	Shaxsiy hayotga salbiy ta'sir	19,2
3.	Hech narsaga ulgurmaslik	19,7	8.	Ish unumdorligining pasayishi	28,1
4.	O'ylab ko'rmaganman	13,1	9.	Sog'liqning yomonlashuvi	23,3
5.	Ishdan bo'shsh	5,6	10.	Hech narsaga qiziqmaslik	1,4

2-jadvalda keltirilgan natijalarga ko'ra, respondentlarning 33,6 foizi doimiy stressli vaziyat yuzaga kelishi natijasida «kasal bo'lib qolish», 48,3 foizi «asabiy bo'lib qolish», 19,7 foizi «hech narsaga ulgurmaslik» kabi salbiy oqibatlar kuzatilishini ta'kidlashgan. Mazkur natijalardan shuni tushunish mumkinki, yosh rahbarlar muntazam ravishda ro'y beradigan emotsional zo'riqish holati kishida fiziologik o'zgarishlar, turli o'tkir va surunkali kasalliklar, asab tizimidagi buzilishlar, jahldorlik hislarining ortishi, ish samaradorligining pasayishi, belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajara olmaslik kabi holatlarning yuzaga kelishiga o'z ta'sirini o'tkazadigan omil sifatida bilishadi.

Shu bilan birga, yosh rahbarlarning 13,1 foizi stress oqibatlari haqida «o'ylab ko'rmaganman» degan javob variantini berishgan bo'lsa, yana 5,6 foizi «ishdan bo'shsh», 8,9 foizi «jamoadagi nizolar»ning ortishiga sabab bo'lishini ma'lum qilishgan. Natijalardan ko'rinib turibdiki, respondentlarning ma'lum qismi doimiy ravishda sodir bo'ladigan stressli holatlarning inson salomatligi va faoliyatiga ta'siri haqida chuqur o'ylab ko'rmaganligini ta'kidlashgan. Shunga qaramasdan, ayrim yosh rahbarlar muntazam paydo bo'ladigan emotsional zo'riqish holatlari shaxsning faoliyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazib, ishlashni xohlamaslik, kasbiy deformatsiya, mehnatdan sovush, shuningdek, hamkasblari bilan munosabatlardagi taranglik, ziddiyat va tushunmovchiliklarning ortib borishiga asos bo'lishini qayd etishgan.

Respondentlarning 19,2 foizi «shaxsiy hayotga salbiy ta'sir», 28,1 foizi «ish unumdorligining pasayishi», 23,3 foizi «sog'liqning yomonlashuvi», 1,4 foizi «hech narsaga qiziqmaslik» holatlari namoyon bo'lishining asl sababini aynan doimiy stresslar natijasi deb bilishadi. Tez-tez kuzatiladigan zo'riqishlar shaxsning qaror qabul qilish, fikrlash, o'z-o'zini baholash jarayonlaridagi qiyinchiliklar, mehnat faoliyatidagi samaradorlikning pasayishi, ishchanlik qobiliyatining susayishi, salomatlikdagi muammolarning paydo bo'lishi, immunitet tizimining zaiflashuvi, biror faoliyatga nisbatan ishtiyoq va moyillikning kamayishi, qiziqishning so'nishi kabi jihatlar yosh rahbarlarning stress oqibatlari haqidagi munosabatlarini o'zida aks ettiradi.



1-rasm. Yosh rahbarlarning stressli vaziyatlardan chiqish yo'llari (n=263)

Tadqiqot davomida yosh rahbarlarning yuzaga kelgan stressli vaziyatlarni qanday hal qilishi va mazkur holatga nisbatan munosabatlarini o'rganishga harakat qildik. Buning uchun ularga «Stress holatiga tushganingizda Siz vaziyatdan qanday chiqasiz?» savoli bilan murojaat qilindi. Ushbu savolga respondentlar tomonidan berilgan javoblar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi hamda quyidagi diagrammada aks ettirildi. Natijalarga ko'ra, respondentlarning 34,2 foizi stressli holatlardan chiqish uchun «dam olishi», 7,2 foizi «ovqat tanovul qilishi», 26,7 foizi «ko'chada aylanishi»ni ta'kidlashgan. Mazkur ko'rsatkichlardan shuni anglash mumkinki, yosh rahbarlar emotsional zo'riqishlar paydo bo'lganida ishlashni vaqtincha to'xtatish, tanaffus qilish, turli oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish, xiyobon va (yoki) boshqa tinch (osuda) joylarda aylanish kabi korreksion usullardan foydalanishni ma'qul ko'rishar ekan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «Yosh rahbarlarda stressga bardoshlilikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini empirik tadqiqi»ga bag'ishlangan. Unda yosh rahbarlarda stress holatini empirik tadqiqining va yosh rahbarlar boshqaruv faoliyatida stressogen vaziyatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil etilgan. Yosh rahbarlarda «stressga bardoshlilik»ning namoyon bo'lishiga «emotsional so'nish» komponentlarining ta'sir xususiyatlarini o'rganish tadqiqot ishimizning asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Xususan, yosh rahbar shaxsida «emotsional so'nish»ning shakllanganlik darajasi aynan kasbiy faoliyatdan ortiriladigan stresslar rivojiga ta'sir ko'lami nechog'lik darajada ekanligini aniqlashdan iborat. Shu boisdan ham respondentlar guruhlarida Lemur-Tese-Fillionning «Psixologik stress shkalasi» va V.V.Boykoning «Emotsional so'nish darajasini aniqlash» metodikasi bilan empirik tadqiqotlar o'tkazildi.

3-jadval.

Yosh rahbarlarda «emotsional so'nish komponentlari» va «stressga bardoshlilik» shkalasi orasidagi aloqadorlik korrelyatsion bog'lanish (n=263)

Emotsional so'nish komponentlari	Stressga bardoshlilik (psixologik stress shkalasi)
Psixotraumatik vaziyatlar kechishi	0,32**
O'zidan qoniqmaslik	0,20**
«Burchakka taqalgan»lik (qafas ichidaligini his etish)	0,31**
Xavotirlanish va depressiya	0,36**

Nomunosib (adekvat bo‘lmagan) emotsional javob	0,25**
Emotsional-axloqiy dezorientatsiya	0,09
Hissiyotlarni jilovlash sohasini kengaytirish	0,40**
Kasbiy vazifalarni qisqartirish	0,30**
Emotsional tanqislik	0,29**
Emotsional chetlashish	0,14*
Depersonalizatsiya (shaxsiy chetlashish)	0,35**
Psixosomatik va psixovegetativ buzilishlar	0,36**

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

3-jadval natijalariga ko‘ra (3-jadvalga qarang), yosh rahbarlarda «psixologik stress» shkalasi va «emotsional so‘nish» komponentlaridan: «psixotraumatik vaziyatlar kechishi» bilan ($r=0,32$; $p \leq 0,01$), «o‘zidan qoniqmaslik» o‘rtasida ($r=0,20$; $p \leq 0,01$), «burchakka taqalgan»lik orasida ($r=0,31$; $p \leq 0,01$), «xavotirlanish va depressiya»ga nisbatan ($r=0,36$; $p \leq 0,01$) ahamiyatli musbat korrelyatsion aloqadorlikka ega ekanligi aniqlandi. Bundan ko‘rinadiki, respondentlarda psixologik zo‘riqlarning ortishi, o‘z navbatida, stressga bardoshlilik darajasining pasayishi kasbiy faoliyatda emotsional holatlarga ta’sir o‘tkazib, ularda ko‘proq ish jarayonida yoqimsiz vaziyatlarning yuzaga kelishi, psixik taraqqiyotga salbiy ta’sir etuvchi omillarga berilish, o‘zining imkoniyat va qobiliyatlaridan ko‘ngli to‘lmasligi, o‘ziga past baho berish, o‘zini boshqalardan ajralib qolgandek his qilish, atrofdagilar bilan munosabatga kirishishni xohlamaslik, har xil hodisalardan tashvishlanish, tushkunlik kabi holatlarning kuzatilishiga olib keladi. Shuningdek, ish faoliyatida yuzaga keladigan bu kabi stresslar shaxsda unga nisbatan bardoshlilik sifatlarining rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

4-jadval.

Rahbarlikka zaxira kadrlarda «emotsional so‘nish komponentlari» va «stressga bardoshlilik» shkalasi orasidagi aloqadorlik korrelyatsion bog‘lanish ($n=97$)

Emotsional so‘nish komponentlari	Psixologik stress shkalasi
Psixotraumatik vaziyatlar kechishi	0,16*
O‘zidan qoniqmaslik	-0,02
«Burchakka taqalgan»lik (qafas ichidaligini his etish)	0,02
Xavotirlanish va depressiya	0,29**
Nomunosib (adekvat bo‘lmagan) emotsional javob	0,15
Emotsional-axloqiy dezorientatsiya	0,04
Hissiyotlarni jilovlash sohasini kengaytirish	0,10
Kasbiy vazifalarni qisqartirish	0,10
Emotsional tanqislik	-0,07
Emotsional chetlashish	0,16*
Shaxsiy chetlashish (depersonalizatsiya)	0,21**
Psixosomatik va psixovegetativ buzilishlar	0,23**

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

Tadqiqot natijalariga ko'ra (4-jadvalga qarang), rahbarlikka zaxira kadrlarda «psixologik stress» shkalasi va «emotsional so'nish» komponentlaridan: «psixotraumatik vaziyatlar kechishi» orasida ahamiyatli ($r=0,16$; $p \leq 0,05$), «xavotirlanish va depressiya» o'rtasida ($r=0,29$; $p \leq 0,01$), «emotsional chetlashish» bilan ($r=0,16$; $p \leq 0,05$) munosabatlar tig'iz korrelyatsion aloqadorlikka ega ekanligi aniqlandi. Bundan ko'rinadiki, bo'lg'usi yosh rahbar kadrlarda mehnat jarayonidagi zo'riqishlar, ulardagi stressga bardoshlilik darajasining pastligi turli qiyinchiliklar paytida salbiy emotsiyalarning ortishiga sabab bo'ladi. Jumladan, bunday holatlarni kasbiy faoliyatda doimo jismoniy va psixologik me'yorlardan ortiq, bir so'z bilan aytganda professional-psixologik yuklamalarni boshdan kechirish, yosh rahbarlar hissiy sohasiga tevarak-atrofdan bo'ladigan turli «disfunktsional ta'sir»larga nisbatan chidamsizlik, hayotiy mazmunning yo'qolishi, kayfiyatning keskin tushishi, ishga bo'lgan ishtiyoqning susayishi, muloqot jarayonidagi passivlik, atrofdagi insonlar bilan shaxslararo munosabatlarda hissiyotlarning tanqisligi va shu kabi «kongnitiv dissonans»lar kuchayganligini psixofiziologik, psixoemotsional, ijtimoiy omillar ta'siri ustuvorligida kuzatilganligi ilmiy yangilikdir.

Bundan tashqari, zaxiradagi bo'lajak yosh rahbarlarda «psixologik stress» shkalasi va «emotsional so'nish» komponentlaridan: «shaxsiy chetlashish» (depersonalizatsiya) o'rtasida ($r=0,21$; $p \leq 0,01$), «psixosomatik va psixo-vegetativ buzilishlar» orasida ($r=0,23$; $p \leq 0,01$) musbat aloqadorlikka ega ekanlik qayd etildi. Mazkur ko'rsatkichlar, o'z navbatida, kasbiy faoliyatda namoyon bo'luvchi zo'riqishlar, stressga bardoshlilikning susayishi respondentlarda o'zini idrok qilishdagi muammolar, tana va ruhiyatdagi me'yordan og'ish holatlariga olib kelishini anglatadi. Shuningdek, psixologik stressning ortishi ishda uchrashadigan insonlar va ularning muammolaridan charchash, hamkasblar bilan muzokara qilishni xohlamaslik, mehnat faoliyatida o'ziga yoqmagan shaxslarga ixtiyorsiz ravishda qo'pol munosabatda bo'lish, ba'zan og'ir his-tuyg'ular bilan ishga borish, barcha narsadan ko'ngil qolishiga asos bo'ladi. Qayd etish joizki, zaxiradagi rahbarlar stressli vaziyatlar ta'sirida salomatlikdagi salbiy o'zgarishlar, mashaqqatli ish kunidan keyin o'zini darmonsiz his qilish, quvvatni tiklash maqsadida turli dori vositalarini iste'mol qilish, tamaki va alkogol moddalari va shu kabi boshqa holatlarni boshidan kechirishadi.

5-jadval.

Yosh rahbarlarda «stressga bardoshlilik» va «stressli vaziyatlarni bartaraf etish strategiyalari» orasidagi aloqadorlik korrelyatsion bog'lanish ($n=263$)

Stressli vaziyatlarni bartaraf etish strategiyalari	Psixologik stress shkalasi
Assertiv harakatlar	0,02
Ijtimoiy aloqaga kirish	-0,07
Ijtimoiy yordam so'rash	-0,04
Ehtiyotkor harakatlar	0,04
Impulsiv harakatlar	0,05

Qochish	0,11
Bilvosita harakatlar	0,08
Asotsial harakatlar	0,26**
Tajovuzkor harakatlar	0,33**

Izoh: ** $p \leq 0,01$

Yosh rahbarlarning boshqaruv faoliyati davomidagi psixologik zo‘riqishlarining namoyon bo‘lishidan kelib chiqadigan stressli vaziyatlarni qaysi usullar yordamida yengib o‘tishga muvaffaq bo‘lishlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, «psixologik stress» shkalasi va «stressli vaziyatlarni bartaraf etish» strategiyalaridan: «asotsial harakatlar» orasida ($r=0,26$; $p \leq 0,01$), «tajovuzkor harakatlar» o‘rtasida ($r=0,33$; $p \leq 0,01$) ahamiyatli tig‘iz aloqadorlik borligi aniqlandi.

Respondentlarning ish jarayonida paydo bo‘ladigan psixologik stresslarning ortib borishi hamda stressga bardoshlilik darajasining pasayishi ularda ushbu salbiy holatlarni bartaraf etish uchun turli «xulq-atvor ko‘rinishlari» namoyon bo‘lishiga olib keladi. Xususan, emotsional zo‘riqishlar ta’sirini pasaytirish maqsadida yosh rahbarlar ijtimoiy me’yorlarga zid xatti-harakatlarni amalga oshirish, jamiyat talablarini bajarishni istamaslik, turli qonun-qoidalarni buzishga moyillik, shaxslararo munosabatlardagi ziddiyatlar, atrofdagi insonlarga agressiv munosabatda bo‘lish, turli narsa-predmetlarga shikast yetkazish, jahldorlik xususiyatlarini namoyon qilish, salbiy emotsiyalarga berilish kabi holatlarni sodir etishadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yosh rahbarlarning «psixologik stress» shkalasi va «stressli vaziyatlarni bartaraf etish» strategiyalaridan: «assertiv harakatlar» o‘rtasida ($r=0,02$; $p > 0,05$), «ijtimoiy aloqaga kirish» ($r=-0,07$; $p > 0,05$), «ijtimoiy yordam so‘rash»lar orasida ($r=-0,04$; $p > 0,05$), «ehtiyotkor harakatlar» ($r=0,04$; $p > 0,05$), «impulsiv harakatlar» ($r=0,05$; $p > 0,05$), «qochish» ($r=0,11$; $p > 0,05$), «bilvosita harakatlar» oralig‘ida ($r=0,08$; $p > 0,05$) esa o‘zaro korrelyatsion aloqadorlikni tashkil etmasligi ma’lum bo‘ldi. Bundan kelib chiqadiki, yuzaga keladigan stressli vaziyatlarni yengish maqsadida dadil xatti-harakatlar amalga oshirish, insonlar bilan muloqot qilishga intilish, o‘zgalarning qo‘llab-quvvatlashini kutish, shoshilmasdan ish tutish, keskin xatti-harakatlarni sodir etish, muammolardan uzoqlashishni istash, rejali choralar ko‘rish kabi xulq-atvor shakllari rahbarlik faoliyatini boshlaganiga ko‘p muddat bo‘lmagan shaxslarning stress darajasiga har doim ham bog‘liq emasligi ayon bo‘ladi.

6-jadval.

Zaxira kadrlarda «stressga bardoshlilik» va «stressli vaziyatlarni bartaraf etish strategiyalari» orasidagi aloqadorlik korrelyatsion bog‘lanish ($n=97$)

Stressli vaziyatlarni bartaraf etish strategiyalari	Psixologik stress shkalasi
Assertiv harakatlar	0,04
Ijtimoiy aloqaga kirish	0,11
Ijtimoiy yordam so‘rash	0,05

Ehtiyotkor harakatlar	0,07
Impulsiv harakatlar	0,09
Qochish	0,08
Bilvosita harakatlar	0,09
Asotsial harakatlar	0,03
Tajovuzkor harakatlar	0,21**

Izoh: ** $p \leq 0,01$

